

HOZIRGI ZAMON FORS TILIDA SODDA FE'L ASOSIDA TUZILGAN QO'SHMA FE'LLARNING STRUKTUR TAHLILI

Xodiyeva Nozima Tulkunovna,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o'qituvchisi
O'zbekiston Respublikasi, Toshkent

Axmedova Dilfuza Rafukjanova

DSc, dotsent, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Xabibova Muxabbat Raxmatullayevna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada fors tilida fe'l leksikasining rivojlanish yo'llari ko'rsatilinadi.
Shuningdek, eronshunos olim L.S.Peysikov va eron tilshunosi M.R.Botining “فارسی زبان عقیم”
maqolasidagi fe'llar haqidagi fikrlari o'r ganilgan.

Tayanch so'z va iboralar: sodda, murakkab va prefiksli fe'llar.

АННОТАЦИЯ

В этой статье обсуждаются способы разработки лексики языка глаголов на персидском языке. Кроме того, рассматриваются результаты лектора Л. С. Пейсикова и иранского лингвиста М. Р. Ботина “فارسی زبان عقیم”.

Ключевые слова и фразы: Простой, сложный, префиксальный глаголи.

ABSTRACT

This article discusses the ways in which the lexicon of the verb language is developed in the Persian language. Also, the findings of the lecturer LS Peysikov and the Iranian linguist M.R. Botin's “فارسی زبان عقیم” are examined.

Keyword and phrase: Simple, sophisticated(complex), additional(prefix) verbs.

KIRISH

Fors tilida fe'l boshqa so'z turkumlari orasida muhim o'rin egallaydi. U nafaqat ma'no xilma-xilligi, balki shakllarining ko'pligi bilan ham ajralib turadi. Fe'llar bilan ifodalangan harakat-holat tushunchasi zamon, mayl, nisbat, shaxs-son kategoriyalari bilan u兹viy boq'liqdir. Bulardan tashqari, fe'llar orqali yana harakatning o'timli-o'timsizligi, bo'lishli-bo'lishsizligi kabi ma'nolar ham ifodalananadi. Fors tilida fe'llarning sodda, murakkab va prefiksli shakllari mavjud. Hozirgi vaqtida fors tilida biror harakat yoki holatni ifodalash uchun (agar ilgari mazkur harakat-holat uchun so'z mavjud bo'lmagan bo'lsa) yangi sodda yoki prefikli fe'l yasalmaydi, balki qo'shma fe'l yasaladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Fors tilida fe'l leksikasining quyidagi rivojlanish yo'llari ajratiladi: 1) sodda fe'llarning prefikslar bilan birikuvi natijasida yangi ma'no kasb etishi; 2) «ism → fe'l» modeli asosida ot (va sifat)dan fe'l yasalishi; 3) frazeologik modellashtirish asosida qo'shma fe'l yasalishi. Yuqorida keltirilgan usullardan qo'shma fe'l yasalishi mahsuldor sanaladi. Mavjud prefiksli fe'llar qadimiy tip yasalishi[2:91] bo'lib, hozirgi fors tilida mahsuldor emas. Eronshunos olim L.S.Peysikovning fikricha, «fe'l prefiksatsiyasining tarixiy missiyasini tugallangan deb hisoblamoq zarur»[3:79]. Hozirgi fors tilida sodda va prefiksli fe'llar yasalmaydi[4:122]. Qo'shma fe'llar yasalishi fe'l yasalishining boshqa usullarini siqib chiqargan[5:204].

Eron tilshunosi M.R.Botini “فارسی زبان عقیم” maqolasida “Hozirgi fors tilida sodda fe'llar yasalmayapti va o'tmishdan bizgacha yetib kelgan mahsuldor sanalgan sodda fe'llar soni kundan kunga kamayib bormoqda va muomaladan chiqib boryapti va o'z o'rnini murakkab fe'llarga bo'shatib bermoqda”, deb yozadi.

با سر آستین عرق پیشانیم را پاک کردم.

Peshanamdag'i terni yengim bilan artdim.

داشتم تخته سیاه را نگاه می کردم و به حرفهای آقای حیدری گوش می دادم.

Doskaga qarab turardim va Xaydariy janoblarining gaplariga qulq solardim.

چرا گریه می کنی بی بی؟

Buvi nega yig'layapsiz?

Keltirilgan misollarda پاک کردن fe'li o'z o'rnini fe'liga, گریه کردن - گوشن - گوشیدن fe'llariga bergen.

Jole Ro`stampur ham o'zining “زایابی زبان فارسی” Fors tilining maxsulorligi” maqolasida yuqorida zikr etilingan Doktor Botiniyning fikrlarini tasdiqlaydi va hozirgi fors tilida oddiy usul orqali ot yoki sifatdan sodda fe'l yasalmayotganligini, sodda fe'l o'rniga murakkab fe'l yashash tendensiya jarayoni borayotganligini ta'kidlaydi.

Doktor Xonlariy ham o'zining “تاریخ زبان فارسی” “Fors tili tarixi” kitobida fors matnlarida takroriy ravishda uchragan sodda fe'llarning ro'yxatini keltiradi. Unda 277ta sodda fe'l qayd qilingan. Ulardan ba'zilari hatto muomaladan chiqqan bo'lib, hozirgi kunda adabiy tilda va hatto og'zaki nutqda ham ishlatilmayotganligini aytib o'tadi.

Y.A. Rubinchikning ko'rsatishicha, «so'z yasalishi» terminining fe'llarga nisbatan qo'llanilishi shartli, chunki sodda va prefiksli fe'llar so'z yasalishida ishtirok etmaydi va sinxron planda yopiq guruh hisoblanadi. Qo'shma fe'llarning soni esa

yuqorida keltirilgan «ot (ism) + fe'l» tipidagi frazeologik model asosida to‘xtovsiz ortib bormoqda⁵. Demak, turq‘un fe'l birikmalari – fe'liy frazeologik birliklarning hosil bo‘lishi natijasida yangidan-yangi qo‘shma fe'llar paydo bo‘lmoqda.

Moxammad Rezo Odel ham ham “ فعل در زبان فارسی” (Fors tilida fe'l) maqolasida sodda fe'llar kundan kunga kamayib, o‘rniga murrakkab fe'llar yasalyotganligini va olib borgan tadqiqotida 3000 ga yaqin qo‘shma fe'l yig‘ganligini, shulardan 1056 tasida (کردن) fe'li yordamchi fe'l vazifasida kelganligini aytib o‘tadi.

Eronshunos olim Y.A. Rubinchikning fikricha, qo‘shma fe'lning tabiatini va uning qo‘shma so‘z hamda so‘z birikmasiga munosabati masalalari, qo‘shma fe'lning til sistemasida, ya’ni grammatika va frazeologiya sohasida tutgan o‘rni hanuz to‘la aniqlanmagan.

Mazkur muammoni o‘rganishda manba sifatida Muaddabburning پریچهر قصه های مجید (Parichehr) (Tehron, 1378) romani va Mo‘rodiy Kermoniyning Qessehoi Majid asaridagi (Tehron, 1358) ماهی Mohi hikoyasi tanlandi. Ishdan ko‘zlangan maqsadimiz sodda fe'llarni “parchalash” orqali yasalgan qo‘shma fe'llar modellarini aniqlashdir.

Fors tilida sodda fe'llarni «parchalash», «bo‘lish» orqali qo‘shma fe'llar yasaladi. Ularni fe'liy perifraza (yoki parafraza – yun. paraphrases – tasviriyl ifoda, tasvir)lar deb atash mumkin. Bunday qo‘shma fe'llarning birinchi komponenti sifatida o‘sha asos qilib olingan fe'lning (o‘zak) negizi, sifatdosh shakli, harakat nomi xizmat qiladi. Mazkur qo‘shma fe'llarni ularning yasalishiga asos bo‘lgan sodda fe'llar bilan o‘zaro semantik munosabatiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin [1:108].

1. *Ot (va sifat)dan yasalgan fe'llarning yasovchi asosi + yordamchi fe'l* modeli: رقصیدن رقص کردن – *raqs kardan* «raqsga tushmoq»;

جانگیدن *jangidan* – *jang kardan* «jang qilmoq», «urushmoq»;

Ba’zan qo‘shma fe'lning ot qismi به be predlogini qabul qiladi:

انجامیدن *anjāmidan* – به انجام رساندن – *be anjām rasāndan* «tugatmoq», «tamomlamoq» kabi.

بعد از این که دعاش تموم شد، اشکها شو پاک کرد و به طرف من بر گشت و گفت. (مؤدب پور.)

(پریچهر، ص. 568)

Duosi tugaganidan keyin, ko‘z yoshlarini artdi va men tomonga o‘girildi va dedi.

بچه م رو برق خشک کرده بود. (مؤدب پور. پریچهر، ص. 4)

Bolamni tok urgan edi.

2. Sodda fel’ning hozirgi zamon negizidan yasalgan -e suffiksli ot+ yordamchi fe'l modeli:

خندیدن *xandidan*-*xande kardan* “kulmoq”
گریستن *geristan*-*gerye kardan* گریه (افتادن) به *gerye oftādan*)
“yig’lamoq”*kabi*.
ناله می کردم. زالری می زدم ولی بگو اگر از سنگ صدا در می آمد؟ (مؤدب پور. پریچهر، ص.
136(Nola qillardim, zorlanardim lekin ayt, toshdan sado chiqarmidi?

ولی من گریه نکردم همین باعث شد که پدرم منو بیشتر بزن. (مؤدب پور. پریچهر، ص. 63)

Ammo men yig’lamadim. Otam meni ko‘proq urushiga shu narsa sabab bo‘ldi.

3. Sodda va prefiksli fe’llarning o‘tgan zamon negizi + yordamchi fe’l modeli
خریدن *xaridan* خرید کردن – *xarid kardan* “sotib olmoq”;
بافت کردن – *bāft kardan* “to‘qimoq”; *kabi*.

فرهاد، از هیچ چیز کوتاهی نکن. پول که به اندازه کافی داری. صورت حساب بیمارستان رو من از
اینجا پرداخت می کنم. (مؤدب پور. پریچهر، ص. 531)
Farhod, hech narsadan tortinma, yetarli darajada puling bor. Kasalxona
harajatini men bu yerdan to‘layman.
دلت نمی خود کمی هم خرید کنی؟ (مؤدب پور. پریچهر، ص. 548)

Ozgina harid qilishni xohlamaysanmi?

4. Sodda fe’lning hozirgi zamon negizidan yasalgan -eš suffiksli ot + yordamchi fe’l modeli

آزمودن *āzmudan* – آزمایش کردن – *āzmāyeš kardan* “sinamoq”, “tekshirmoq”;

آراستن *ārāstan* – آرایش کردن – *ārāyeš dādan* “yasatmoq”, “bezatmoq”; *kabi*.

وقتیکه ما می تونیم مثل دو تا انسان کامل با هم حرف بزنیم چه اشکالی داره که یکبار آزمایش کنیم شاید
این کدورت ها از بین بره؟ (مؤدب پور. پریچهر، ص. 60)

Ikki komil inson kabi gaplasha olsak va bir marta sinab korsak buni nima aybi
bor, shoyad gina qudratlar yo‘qolib ketsa?

5. Sodda va prefiksli fe’llarning o‘tgan zamon sifatdoshi + yordamchi fe’l modeli.
آمیختن *āmixtan* – آمیخته کردن – *āmixte kardan* «aralashtirmoq»;

بر آورده کردن *bar āvardan* – *bar āvarde kardan* «amalga oshirmoq» *kabi*.
در اون لحظه از صمیم قلب از خداوند خواستم که آرزوی همه رو بر آورده کنه. (مؤدب پور.
پریچهر، ص. 179)

O‘sha lahzada chin qalbdan xudodan hammaning orzusi ushalashini so‘ragan
edim.

ممnonم فرهاد که آخرین آرزوش رو بر آورده کردی! (مؤدب پور. پریچهر، ص. 601)
“Xursandman, Farhod, oxirgi orzusini ro‘yobga chiqarding!”

6. Ma’no jihatidan bir-biriga yaqin yoki sinonim so‘zlarni -o- teng bog‘lovchisi orqali birikuvi + yordamchi fe’l modeli

کوشیدن *kušidan* – سعی و کوشش *say-o-kušeš kardan* “harakat qilmoq”;

گريه و ناله کردن *gerye-o-nāle kardan* – گريستان *geristan*, *nālidan* “*yiq‘lamoq*”,
 “*ho‘ngrab yiq‘lamoq*”;kabi.

مادرم با بقیه خانمها هم در گوشه دیگر سالن مشغول گفت و شنود شدند. (مؤدب پور. پریچهر، ص.46)

Onam qolgan ayollar bilan boshqa xonaning burchagida gaplashish bilan mashg‘ul edilar.

7. Sodda fe'lning hozirgi zamon sifatdoshi + yordamchi fe'l modeli

خندان شدن – *xandān šodan* “*kulmoq*”;

آویزان کردن – *āvīzān kardan* “*osmoq*”, “*osib qo‘ymoq*”;kabi.

چقدر طلا و جواهر به خودشان آویزان می کردند (مؤدب پور. پریچهر، ص. 566)...

“...(O‘zlariga) qancha tilla-yu javohir taqardilar”.

من هر جا که باشم، تورو دوست دارم و برات نگرانم (مؤدب پور. پریچهر، ص. 568)

“Men qayerda bo‘lsam ham, seni yaxshi ko‘raman va sen uchun qayq‘uraman”.

8. Sodda fe'lning hozirgi zamon negizi + yordamchi fe'l modeli

آزار دادن – *āzār dādan*, *āzār rasāndan* “*ozor bermoq*”,
 “*xafa qilmoq*”;

فریب دادن *feriftan* – *ferib dādan* “*aldamoq*”, “*fīrib bermoq*”;

Ba‘zan qo‘shma fe'lning ot qismi *be* old ko‘makchisini qabul qiladi:

جوش آمدن – *be juš āmadan* “*qaynamoq*”; “*hayajonlanmoq*” kabi.

تمام قالیچه ها به قیمت خوب فروش رفته بودند. (مؤدب پور. پریچهر، ص. 421)

Barcha gilamchalar yaxshi narxda sotilgan edi.

خانم پیر سری تكون داد و گفت. (مؤدب پور. پریچهر، ص. 29)

Keksa ayol boshini silkitdi va dedi.

9. Sodda fe'lning ham o‘tgan, ham hozirgi zamon negizlari + yordamchi fe'l modeli

گفتگو کردن *goft-o-gu kardan* – *goftan* “*gapirmoq*”, “*suhbatlashmoq*”,

شستشو کردن *šostšu kardan*- *šostan* “*yuvintirmoq*”

بعد از اینکه برادرم رو توی همون استخر غسل کردند و شستشو دادند ته باع دفنش کردند.

(مؤدب پور. پریچهر، ص. 86)

Ukamni o‘sha hovuzda g‘usl qildilar va yuvintirganlaridan so‘ng, bog‘ning ichkarisiga ko‘mdilar.

10. 2sodda fe'lning o‘tgani zamon negizlari + yordamchi fe'l modeli

شما باید اجازه بدهید که اونها مدتی با هم رفت و آمد داشته باشند

Ular qandaydir muddat bir-birlari bilan uchrashib turishlari uchun siz ruxsat berishingiz kerak.

11. Qo‘shma fel’ning hozirgi zamon negizi+yordamchi fe'l modeli

قالى بافى كردن *qāli bāftan* قالى بافى كردن “gilam to‘qimoq”
عذر خواهى كردن *ozr xāstan* عذر خواستن *ozr xāhi kardan* “uzr so‘ramoq”kabi.
بهش گفتم مى دونى عزت، من قبل از اينكه زن امراله بشم، قالى بافى مى كردم. (مؤدب پور. پريچهر،
ص. 408)

Unga aytdim, bilasanmi A’zat, Amrullohga erga tekgunimcha gilamdo‘zlik qilardim.

12. Prefiksli fe'l'larning hozirgi zamon negizi+yordamchi fe'l modeli

واريز كردن- *vārīxtan*- واريز *vāriz* kardan “pul to‘lamoq”

وادرار كردن- *vādāštan*- وادرار *vādār* kardan “majburlamoq” kabi.

هزينه بيمارستان را قبلاً در ايران به حساب واريز كرده بوديم. (مؤدب پور. پريچهر، ص. 536)

Kasalxona xarajatlarini oldindan Eronda to‘lab qo‘ygan edik.

امralle رو وادرار كرده بودم كه اين خونه رو بنام عزت كنه. (مؤدب پور. پريچهر، ص. 460)

Bu uyni A’zatning nomiga o‘tkazib berishga Amrullohni majburlagan edim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, qo‘shma fe’llar prefiksli va otdan yasalgan fe’llar kabi muayyan bir harakatni bildiradi. Ularning shakllanishi o‘rta fors tili davridan boshlanadi va tilning hozirgi bosqichida miqdor jihatidan ustunligi shubhasiz.

Qo‘shma fe’llarning yasalish strukturasini tekshirish ularni ikki guruhga ajratish imkonini berdi:

A) Sodda fe’llarni «parchalash» orqali yasalgan qo‘shma fe’llar.

B) Ism + yordamchi fe’l tipidagi qo‘shma fe’llar.

Sodda fe’llarni «parchalash» orqali yasalgan qo‘shma fe’llarning 12 modeli aniqlandi. Ot qismi ot so‘z turkumiga oid so‘zlar bilan ifodalangan qo‘shma fe’llar eng katta guruhnasi tashkil etadi. Yuqorida keltirilgan sodda va ulardan yasalgan qo‘shma fe’llarning sinonimlik darajasi bir xil emasligi aniqlandi. Ulardan ba’zilarining ma’nolari o‘zaro to‘liq bir-biriga mos tushsa, ayrimlarining ma’nolari ba’zi jihatlardagina tenglashadi.

Ot fe’l tipidagi qo‘shma fe’llarga ot, sifat, ravish va boshqalarning yordamchi-yasovchi fe’l bilan birikuvidan hosil bo‘lgan fe’llar kiradi. Asosiy ma’no, ya’ni leksik ma’no fe’lning ot qismida ifodalananadi. Yordamchi-yasovchi fe’llar esa ma’nosizlanishning turli sathlarida bo‘ladi.

Materiallar tahlili orqali qo‘shma fe’llar yasalishi fe’l yasalishining boshqa usullarini siqib chiqarayotgani kuzatildi. 1930-yilda nashr qilingan Sodiq Hidoyatning “Хазъ маджиди“ “Obji xānom” hikoyasi va 1999- yilda nashr qilingan Muaddaburning “Parichehr” romanidan 5 sahifa hajmida fe’llarning strukturasini o‘rganish quyidagi natijalarini korsatdi:

Asar nomi	Sodda fe'l	Qo'shma fe'l
خانم آب جی	60	36
پریچهر	46	72

Shuningdek, ruznama materiallari tahlili orqali ham qo'shma fe'llar yasalishi fe'l yasalishining boshqa usullarini siqib chiqarayotgani kuzatildi. Eronda nashr etilingan سلامت va اطلاعات 2 sahifa hajmida fe'llarning strukturasini o'rganish quyidagi natijalarni korsatdi:

Asar nomi	Sodda fe'l	Qo'shma fe'l
اطلاعات	70	38
سلامت	40	70

REFERENCES

1. مؤدب پور، م. پریچهر. - تهران: نسل نوآندیش، 1378. - 608 ص.
2. مرادی کرمانی. قصه های مجید. - تهران، 1374-412 ص.
3. Khodiyeva N. Structural analysis of complex verbs which based on simple verbs in Persian. International Journal of Research. 947-953 р.
4. Ходиева Н. Форс тилидаги ماضى ملموس тугалланмаган ўтган замон феъли ва مضارع ملموس тугалланмаган ҳозирги замон феъл формалари. Oriental Renaissance: Innovative educational, natural and social sciences № 3 2021. 487-493.
5. Alimova X. Dariy tili (morphology). -T.: «O'zbekiston» Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.
6. Мухамедова Н.А. Теоретическая грамматика персидского языка. Т. 1994.
7. Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. М. 1973.
8. Рубинчик Ю.А. Основы фразеологии персидского языка. – М.: Наука, 1981.
9. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного литературного персидского языка. М. 2001.